



**1-qism:** Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.

1. Qaysi javobda **qo‘s Shimcha** qo‘llash bilan xatolik mavjud?
  - A) Yomg‘irli kunnarda yomg‘ir yog‘sa, biz uyda qolishga majbur bo‘lamiz.
  - B) Serunum dalalar bahorda rang-barang gullarga burkanadi.
  - C) Uning nojo‘yali harakatlari barchani noqulay ahvolga solib qo‘ydi.
  - D) Ularning fikrlari juda qolipli bo‘lib, yangiliklarga ochiq emas edi.
2. Qaysi gapda barcha so‘zlar imloviy jihatdan **to‘g‘ri** yozilgan?
  - A) Oyog‘i bilan tepkini boskach darvoza sekin ochildi.
  - B) Boshqa o‘rtoqlar ham sizni tavsiya qilishayapti.
  - C) Qoradaryo va Norinning qo‘s hilishidan Sirdaryo hosil bo‘ladi.
  - D) Oyim gapiryaptiyu, ko‘zlarim o‘qituvchimda edi.
3. Qaysi javobda “**o‘z xatti-harakatlarini irodasiga bo‘ysundirdi**” mazmuniiga mos bo‘lgan ibora berilgan?
  - A) o‘zini qo‘lga oldi
  - B) o‘ziga bino qo‘ydi
  - C) o‘ziga keldi
  - D) o‘ziga oldi
4. *Xalqimiz... asrlar davomida shakllangan qadimiyl madaniyati va qadriyatları... asrab qolishimiz uchun yosh avlod... milliy ruh... tarbiya qilishimiz lozim...*  
Ushbu gapda nechta so‘zdagi nuqtalar o‘rniga **tushum kelishigi** qo‘s himchasi qo‘yiladi?
  - A) 5
  - B) 4
  - C) 3
  - D) 2

5. Qaysi javobdagi gapda **og‘ir so‘zi “qiyin, murakkab, mashaqqatli”** ma’nolarida qo‘llangan?
  - A) Usta, hadeb og‘iringizni bizga tashlamasdan o‘zingizni eplasangiz bo‘lardi.
  - B) Jo‘raboy qirraburun, juda kamgap, tik gavdali, og‘ir yigit edi.
  - C) Bugungi vaziyatdan norozi bo‘lgan oqsoqol og‘ir qadam bosib kelardi.
  - D) Yo‘lchi har xil og‘ir yumushlarni qilib o‘rgangan bo‘lsa ham, to‘nka kovlamagan edi.
6. Imloviy jihatdan **to‘g‘ri** yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.
  - A) surriyod, odamzod, biror-bir
  - B) hukumdor, nadomad, birdan-bir
  - C) uddaburon, talofat, bir-biridan
  - D) diagnoz, diagnostika, birma-bir
7. Berilgan gapda ishtirok etgan **ko‘makchi** qanday mazmuniy munosabat ifodalagan?  
*Darhaqiqat, agar voqealarning kechishini diqqat bilan kuzatsak, hatto Abu Yusuf bilan Zuhrabegi og‘a ham uning niyatidan xabardorligini tushunib yetamiz.*
  - A) vosita ma’nosı
  - B) holat ma’nosı
  - C) sabab munosabati
  - D) birgalik ma’nosı
8. Qaysi gapda **ajratilgan bo‘lak** mavjud?
  - A) O‘g‘lim, yana bir bor o‘ylab ko‘r, balki, shu sohada ishlab ko‘rarsan?
  - B) Matematika, fizika, biologiya – hammasi bola tafakkurini o‘stirishga xizmat qiladi.
  - C) Afsus, biz kutgan natijaga erisha olmadik, astoydil harakat qilgan edik.
  - D) Biz shu atrofdan, qishloqqa yaqin joydan, boshpana topdik.





9. Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z **ko'chma ma'noda** qo'llangan?
- A) *Ma'yus majnuntollar ularni hamon kutishayotgan ekanmi?*  
B) *Buloqning ko'zi qayta ochildi, obihayot jildirab-jildirab oqardi.*  
C) *U yoshlikdagi qadrdon o'rtog'ini juda sog'ingan ekan, gaplashib to'ymasdi.*  
D) *G'amdan o'rtangan tanbur ovozi uni allaqayoqlarga olib ketgandek bo'ldi.*
10. Qaysi javobda ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'zaro **shakldosh emas**?
- A) *Mashinaga barcha yuklarni ortdi, hech narsasi qolib ketmadi.*  
*Uning boyliklari kutgandan ham ortdi, endi uni yaxshilikka sarflash lozim.*  
B) *Saidali bog'dagi qovundan olib o'tkir pichoq bilan uni so'ya boshladi.*  
*Bolaning zehni o'tkir bo'lsa, hamma narsani tez ilg'aydi.*  
C) *Azimjon dastlab suvda suzdi, so'ng qirg'oqqa chiqib gap boshladi.*  
*Anoraxon bolalariga ovqat suzdi, ular esa maza qilib yeb olishdi.*  
D) *Qanotlarini keng yozgan burgut osmon uzra parvoz qilardi.*  
*Xatlarni husnixat bilan yozgan o'quvchi ustozи tomonidan maqtaldi.*
- 2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi.**
11. Qaysi javobdagi juftliklarda **ot va sifat yasovchi** qo'shimchalar o'zaro omonimlik hosil qilgan?
- A) *supurgi-kuzgi*  
B) *kelinchak-kuyunchak*  
C) *qarsak-o'ksik*  
D) *to'lin-to'kin*
12. Berilgan gapda qo'llangan **otlar haqida xato** hukmni toping.
- Or – bu o'ziga ep ko'rilmagan yoki yarashmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir.*
- A) Otlarning tuzilishiga ko'ra faqat bir turi qatnashgan.  
B) Mavhum otlar qatnashgan.  
C) Otlar faqat bosh bo'laklar vazifasida qo'llangan.  
D) Sodda tub va yasama otlar qo'llangan.
13. Qaysi javobdagi gapda nuqtalar o'rniga faqat **ot yasovchi** qo'shimcha tushirib qoldirilgan?
- A) *O'quvchilar sino...larni muvaffaqiyat... topshirib, bil...larini yanada kengatirdilar.*  
B) *Mashg'ulotdan keyin sport...lar tezkorlik bilan tik...nib, musobaqa... tayyorlandilar.*  
C) *Yut...larni oshirish va ko'rsat...larni yaxshilash har bir shifo...ning burchidir.*  
D) *Yoshlarga zamona... texnologiyalarni o'rgatish kel...imizni muvaffaqiyat... qurishda asosiy omildir.*
14. Quyidagi gapda nuqtalar o'rniga qaysi qo'shimchani **qo'llab bo'lmaydi**?
- Yaxshi tarbiya ko'rgan odamning xislatlari... biri shuki, bunday odam o'z faoliyati... boshqalardan bir qadam oldinga o'tsa darrov orqaga qaraydi, sheriklariga yordam qo`lini uzatadi, safini kengaytirib, yangi g`alaba... ko`zlaydi.*
- A) *tushum kelishigi*  
B) *o'rin payt kelishigi*  
C) *jo'nalish kelishigi*  
D) *chiqish kelishigi*





15. Gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishi **to'g'ri** ko'rsatilgan javobni aniqlang.

*Olovqalb va shijoatli yoshlarimizning o'tkazilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etishi yurtimizning porloq kelajagiga ishonchimizni mustahkamlamoqda.*

- A) o'tkazilayotgan tadbirlarda, shijoatli tadbirlarda
- B) ishtirok etishi, ishonchimizni mustahkamlamoqda
- C) olovqalb va shijoatli, yurtimizning kelajagiga
- D) shijoatli yoshlarimiz, yoshlarimizning kelajagiga

16. Qaysi javobdagi **fe'llar** gapning ikki xil bo'lagi vazifasini bajargan?

- A) Chol aytibdi: "Qayg'urmang, bu kunlar ham o'tadi . . . "
- B) Sen ko'rmayapsan, yulduzlar birin-ketin so'nib boryapti.
- C) Biror yulduz uchsa, derlar: «Kimdir o'tdi bu olamdan. . . ».
- D) Bahor keldi, endi ortiq qish emas, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

17. *Yuragimda ko'kdir alamli dardlar, Mening qizim – sening singling, nomardlar. Qizing ber, deb mening ko'nglim bo'lasan, Suyagimni yongan o'tga solasan.*

Ushbu parchada **fonetik hodisaga** uchragan nechta ot qatnashgan?

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

18. Qaysi javobda **bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarga** ikkitadan misol keltirilgan?

- A) ammo, hatto, sayin, ya'ni, tufayli, uzra
- B) sari, hatto, qadar, lekin, tufayli, uzra
- C) va, basharti, qadar, chunki, hatto, faqat
- D) biroq, chunki, faqat, naq, uchun, kabi

19. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik **mavjud emas**?

- A) Behbudiy: "Maktab dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir," – deb yozadi.
- B) Xalil bobo nevarasiga gиргиттон bo'lib: "Hoy bolam senga nima bo'ldi?" – der edi.
- C) "Hunari va odobi bo'lмаган kishidan, – deydi Mahmud Koshg'ariy – baxt va davlat ketadi".
- D) "Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun, avvalo, insonni tushunish, anglash kerak", – deyiladi "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida.

20. Qaysi gapda **-choq** qo'shimchasi narsa otini yasash uchun xizmat qilgan?

- A) U kamning o'yinchoqlari har tomonga sochilib ketgan edi.
- B) Toychoq bir kishnab qo'ydi-da, onasining ortidan chopqillab ketdi.
- C) Qo'rqaq kishilar ko'pincha maqtanchoq ham bo'lishadi.
- D) Oyim o'choq boshida qandaydir ish bilan band.

**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi.**

21. Quyidagi gapda qatnashgan otlar haqidagi **to'g'ri** hukmni aniqlang.

*Ta'lim tizimida sifatli o'zgarishlar qilish orqali yurtimizda bilimli va ijodkor avlodni tarbiyalashga erishiladi.*

- A) Faqat sodda va qo'shma otlar ishtirok etgan.
- B) Tub va yasama otlar ishtirok etgan.
- C) Faqat shaxs va o'rin-joy oti ishtirok etgan.
- D) Faqat aniq otlar ishtirok etilgan.





22. Quyidagi gapda qatnashgan fe'llar haqidagi **to‘g‘ri** hukmni aniqlang.

*Shifokor bemorning sog‘ligini yaxshilash uchun turli usullarni qo‘llashni rejalashtirmoqda.*

- A) Fe‘lning tuzilishiga ko‘ra ikki turi qatnashgan.
- B) Fe‘l nisbatlarining ikki turi qatnashgan.
- C) Fe‘lning vazifa shakllariga ko‘ra uch turi ishtiroy etgan.
- D) Fe‘lning tub va yasama shakli qatnashgan.

23. Berilgan gap haqida **to‘g‘ri** hukmni aniqlang.

*Tiniq osmon o‘zining bor go‘zalligi va malohatini cheksiz balandliklardan ulug‘vorlik bilan bizga namoyon qilib turar edi.*

- A) Sifatlovchi aniqlovchilar ham vositali ham vositasiz to‘ldiruvchilarga tobelangan.
- B) Ravish holi vositali to‘ldiruvchiga tobelangan.
- C) O‘rin holi fe‘l kesimga tobelangan.
- D) Kesimning ifodalanishiga ko‘ra ikki turi qatnashgan.

24. Berilgan parcha haqidagi **to‘g‘ri** hukmni toping.

*Bir kishi tabibga mazasi qochayotganini aytibdi. Tabib:  
– Bugun nima yeganding? – deb so‘radi.  
– Uch botmon yarmi kuyuk go‘ja, – debdi bemon.*

- A) Uyushgan bo‘lak ishtiroy etgan.
- B) Ajratilgan bo‘lak ishtiroy etgan.
- C) So‘z-gap ishtiroy etgan.
- D) To‘liqsiz gap ishtiroy etgan.

25. Berilgan gapda qo‘llangan qo‘srimchalar haqida **xato** hukmni aniqlang.

*Shunchaki sevilmoq - baxtiqarolik. To‘la tole uchun bu kemtik, bu kam. Mening qalbim shunday sevgiga molik: Bir charsillab yonay, so‘ngra so‘nsam ham.*

- A) Ot va sifat yasovchi qo‘srimchalar qo‘llangan.
- B) Fe‘lning lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchi qo‘srimchalari qo‘llangan.
- C) Otlarning munosabat shakllarining uch turi ham qo‘llangan.
- D) Fel yasovchi qo‘srimcha qatnashgan.

26. O‘tganlarni esladim va shundan go‘yat afsuslandimki, insonning irodasi eskirmas ekan-u, o‘zi charchab qolar ekan.

Ushbu gapda qatnashgan yasama so‘zlar haqida berilgan **noto‘g‘ri** fikrni toping.

- A) Yasama so‘zlar bir xil gap bo‘lagi vazifasini bajargan.
- B) Barcha yasama so‘zlar tuzilishiga ko‘ra o‘zaro bir turga mansub.
- C) Yasama so‘zlarning ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasini bajarishi kuzatilmaydi.
- D) Barcha yasama so‘zlarning yasalish asosi o‘zaro bir xil so‘z turkumiga mansub.

27. Turli so‘z turkumlari bilan ifodalangan **ravish hollari** qatnashgan gapni aniqlang.

- A) G‘avvos apil-tapil o‘rnidan turdi, dod solib arava orqasidan ergasha boshladi.
- B) Bular piyoda asta-sekin o‘rdaga bordilar.
- C) Do‘stlar oldinda kutmoqda, biz ham manzilga yetib olaylik.
- D) Aravalalar birin-ketin yura boshlagach, G‘avvos bir ilonni sekin Zavrakning tizzasiga qo‘ydi.





28. Qaysi javobdagi fe’lda I shaxs birlik ma’nosi o‘rnida II shaxs birlik shakli **qo‘llanishi uchraydi?**
- A) “Yigitlar, bir harakat qilsak, marra bizniki, ana boshliq ham keldilar”, – dedi Yolqinjon.
- B) Kamina xizmatingizni sidqidildan bajaradi, xavotir olmang, aka.
- C) “Qani, qizim, marhamat qilsinlar, mehmonlar sizni kutib qolishdi”, – dedi uy egasi iltifot bilan.
- D) “Bu dunyoning ishlariga hayron qolasan ”, – dedi Nodirjon o‘z-o‘ziga gapirib.
29. Qaysi gapda qatnashgan barcha **ko‘makchilar** yasama so‘z bilan ifodalangan gap bo‘laklarini shakllantirishga xizmat qilgan?
- A) “Tinchlik tufayli ellar obod, xonadonlar tinch, – dedi otaxon donishmandlik bilan, – bu haqda bilib qo‘ying”.
- B) U xuddi usta zargarlar kabi uzukni boshdan oyoq aylantirib qaradi, ammo hech narsani sezmagani uchun uni Naziraga qaytarib berdi.
- C) “Goho miriqib dam olish uchun ham vaqt ajratish kerak-da”, – dedi u beg‘uborlik bilan tog‘ tomonga qarab.
- D) U do‘sidan xavotirlangani uchun changalzor tomon yurdi-yu, biroz qo‘rqaqligi tufayli u yerga kirishga ikkilandi.

30. *Yozgi ta’til boshlanmasdan men qishloqdagi buvimlarnikiga ketdim.*  
Ushbu sodda gap mazmuniga mos ravishda grammatik jihatdan **to‘g‘ri** shakllantirilgan qo‘shma gapni aniqlang.
- A) *Yozgi ta’til boshlansa, men qishloqdagi buvimlarnikiga ketaman.*
- B) *Yozgi ta’til boshlanmadı, ammo men qishloqdagi buvimlarnikiga ketdim.*
- C) *Yozgi ta’til boshlandı va men qishloqdagi buvimlarnikiga ketdim.*
- D) *Yozgi ta’til boshlanmasa, men qishloqdagi buvimlarnikiga keta olmayman.*

